Bu boradan mahalliy tadqiqotchilar ham keng ko'lamli tadqiqotlar olib borishgan. Aripov O.A. (2018; 2019; 2020) tadqiqotlarida O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan institutsional va huquqiy islohotlar, ayniqsa "Doing Business" xalqaro reytingi mezonlari asosida, hamda MDH mamlakatlarning Jahon banki "Doing Business" guruhi reytingida egallagan pozitsiyasi tahlil qilingan. Shuningdek, ishbilarmonlik muhitini yaxshilashning taraqqiy etgan mamlakatlar tajribalari ham qadqiq etilgan. Muallif, O'zbekiston "Doing Business" reytingida bir necha yil ichida sezilarli o'sishga erishgan bo'lishiga qaramasdan, ba'zi yo'nalishlarda, xususan soliq tizimi va xalqaro savdo sohasida, hal etilishi lozim bo'lgan tizimli muammolar saqlanib qolayotganini ta'kidlagan hamda uni bertaraf etish va muhitni yaxshilash yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiya ishlab chiqqan [10;11;12]. Shuningdek, G'afurov U.V. (2021) ham O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishning ahamiyati yoritiladi. Muallif davlat tomonidan amalga oshirilgan institutsional islohotlar, biznes uchun yaratilayotgan soddalashtirilgan tartib-taomillar va "Doing Business" reytingidagi ijobiy o'zgarishlarni tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznes sohasida duch kelinayotgan asosiy muammolar va ularni hal etish bo'yicha amaliy takliflar berilgan [13]. Kurpayanidi K.I. va Ashurov M.S. (2018; 2019) lar ham O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ustuvor rivojlanishida institutsional infratuzilmani shakllantirish va takomillashtirishning ahamiyati asoslangan. Mualliflar O'zbekiston iqtisodiy muhitida erishilgan yutuqlarni hamda mavjud muammolarni chuqur tahlil qilgan. tadqiqotga ko'ra O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitida bir nechta muammolar mavjud: mahsulot va xizmatlar assortimenti tor, resurslardan foydalanish imkoniyati cheklangan, moliya bozorida raqobat yetarli emas, tashqi iqtisodiy aloqalar ortiqcha tartibga solingan hamda biznesni tugatish jarayoni murakkab [14;15]. Shuningdek, T. Ahmedov va boshqalar (2023) O'zbekistonda tadbirkorlar uchun yaratilgan mavjud biznes muhitini baholash bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Ishbilarmonlik uhitini baholash, so'rovnoma asosida olingan natijalarga ko'ra amalga oshirilgan. So'rovnoma natijasida mavjud muammolar aniqlangan va ular tartibga solish uchun bir necha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [16]. Investitsion muhit va ishbilarmonlikni rivojlantirish masalalari yuzasidan iqtisodchi Sh.E. Mustafakulov (2024) tomonidan ham ushbu sohada keng ko'lami ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Muallif asosan investitsion muhit jozibadorligini baholash, investitsion faollik, ishbilarmonlik muhiti va "doing business" kabi yo'nalishlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan [17;18].



O'rganilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, ishbilarmonlik muhitini baholash bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar nazariy hamda amaliy yondashuvlarni shakllantirib kelmoqdalar. Biroq, O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitini baholashga doir metodologik tadqiqotlar ko'lami cheklangan. Demak, mazkur mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy tahlil, ilmiy-abstraktlashtirish va umumlashtirish usullaridan keng foydalanildi. Xalqaro miqyosda qo'llaniladigan metodologiyalar o'zaro solishtirilib, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlash uchun induktiv va deduktiv yondashuvlar qo'llandi.

## TAHLIL VA NATIJALA

Ishbilarmonlik muhitini baholash metodologiyalari orasida 2023-yildan boshlab Jahon banki guruhi tomonidan amaliyotga joriy etilgan va hozirda eng ilg'or va keng qamrovli xalqaro baholash vositasi sifatida e'tirof etilayotgan "Business Ready" metodologiyasi alohida ajralib turadi. Metodologiyaning umumiy ko'rinishi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. "Business ready" metodologiyasi ko'rsatkichlari [20].

I ustun. – Biznesni ochishda tartibga soluvchi normalar sifati (37 ta indikator)	
<b>1.1</b>	<b>Ma'lumot va protseduralar standartlari (18 ta indikator)</b>
1.1.1	Kompaniya ma'lumotlarini topshirish talablari (7 ta indikator)
1.1.2	Haqiqiy egalar haqidagi ma'lumotlarni topshirish talablari (6 ta indikator)
1.1.3	Soddalashtirilgan ro'yxatdan o'tish imkoniyatlari (3 ta indikator)
1.1.4	Faoliyat va ekologik litsenziyalarni olish uchun xavfga asoslangan baholash (2 ta indikator)
<b>1.2</b>	<b>Biznesni ro'yxatdan o'tkazishdagi cheklovlar (19 ta indikator)</b>
1.2.1	Mahalliy firmalar uchun (9 ta indikator)
1.2.2	Chet el firmalari uchun (10 ta indikator)
II ustun. – Biznesni ochishdagi raqamli davlat xizmatlari va axborotning shaffofligi (24 ta indikator)	
<b>2.1</b>	<b>Raqamli xizmatlar (11 ta indikator)</b>
2.1.1	Biznesni boshlash jarayoni (6 ta indikator)
2.1.2	Kompaniya va haqiqiy egalar haqidagi ma'lumotlarni saqlash (3 ta indikator)
2.1.3	Shaxsni identifikatsiya qilish (2 ta indikator)
<b>2.2</b>	<b>Xizmatlararo integratsiya (4 ta indikator)</b>
2.2.1	Kompaniya ma'lumotlarini almashish (2 ta indikator)
2.2.2	Yagona biznes identifikatsiyasi (2 ta indikator)
<b>2.3</b>	<b>Onlayn axborot ochiqligi (9 ta indikator)</b>
2.3.1	Biznes boshlash jarayoni (gender va ekologiya bo'yicha) (5 ta indikator)
2.3.2	Kompaniya haqidagi umumiy ma'lumotlarning mavjudligi (2 ta indikator)
2.3.3	Yangi ro'yxatdan o'tgan firmalar bo'yicha umumiy va gender statistikasi (2 ta indikator)
III ustun. – Biznesni ochishning amaliy samaradorligi (4 ta indikator)	
<b>3.1</b>	<b>Mahalliy firmalar (2 ta indikator)</b>
3.1.1	Yangi mahalliy firmalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun umumiy vaqt (1 ta indikator)
3.1.2	Yangi mahalliy firmalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun umumiy xarajat (1 ta indikator)
<b>3.2</b>	<b>Chet el firmalari (2 ta indikator)</b>
3.2.1	Yangi chet el firmalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun umumiy vaqt (1 ta indikator)
3.2.2	Yangi chet el firmalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun umumiy xarajat (1 ta indikator)



Ushbu metodologiya dastlab 2024-yilda 50 ta mamlakatni o'z ichiga olgan birinchi to'plamini e'lon qildi. Tashqi ko'rinishdan mazkur metodologiya "Business Ready" ning indikatorlari kabi tuzilgan bo'lib, u 10 ta yo'nalishni o'z ichiga oladi [19]. U asosan uchta ustundan iborat bo'lib, har bir ustun o'z ichida o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan kategoriyalarga ajratiladi, bu kategoriyalar esa yana bir necha subkategoriyalarga bo'linadi. Har bir subkategoriya turli indikatorlardan iborat bo'lib, indikatorlarning ayrimlari bir nechta komponentlardan tashkil topgan bo'lib, jami 65 ta indikatorlar tizimidan tashkil topgan. Har bir indikator uchun belgilangan ballar yig'ilib, avval subkategoriya, keyin esa kategoriya va yakunda butun yo'nalish bo'yicha umumiy natijani shakllantiradi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, "Business Ready" metodologiyasi ishbilarmonlik muhitini kompleks baholash uchun ishlab chiqilgan bo'lib, uning tarkibiy tuzilmasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, mazkur metodologiyaning asosiy jihatlaridan biri uning tizimli, keng qamrovli va murakkab ko'rsatkichlardan tashkil topganligidir. Indeksning tarkibida biznesni ro'yxatdan o'tkazish tartibining normativ-huquqiy asoslari sifatini o'lchovchi ko'rsatkichlardan tashqari, bu jarayonlarning raqamlashtirilish darajasi, davlat xizmatlari shaffofligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari ham hisobga olingan. Shu bilan birga, amaliy samaradorlik ko'rsatkichlari – ro'yxatdan o'tish uchun talab etiladigan vaqt va xarajatlar ham alohida e'tiborga olinadi. Ikkinchidan, metodologiyaning muhim jihati uning indikatorlarni baholashda raqamli texnologiyalar va axborot shaffofligiga alohida urg'u berishidir. Mazkur metodologiya davlat boshqaruvidagi raqamli transformatsiya va davlat xizmatlarini avtomatlashtirish darajasini hisobga olgan holda, biznes uchun qulay va byurokreatiyadan xoli bo'lgan muhit shakllanishiga qay darajada erishilganligini aniq ko'rsatib beradi. Uchinchidan, mazkur metodologiya orqali olingan natijalar indikatorlardan boshlab umumlashtirilgan ko'rsatkichlargacha (ustunlar darajasigacha) aggregatsiya qilinadi. Har bir ko'rsatkich o'zining kategoriyasi va quyi kategoriyalariga ajratilib, baholash natijalari yig'iladi. Bu esa biznes muhiti bo'yicha muammoli joylarni aniq va tezkor aniqlashga imkon yaratadi hamda davlatlar uchun samarali siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Endilikda, mazkur metodologiya bo'yicha baholashning asosiy shartlari, mezonlari va ko'rsatkichlarini batafsil ko'rib chiqamiz hamda ularning har biriga ilmiy-metodik jihatdan alohida to'xtalib o'tamiz (2-jadval).

2-jadval. "Business ready" metodologiyasi bo'yicha agregat ballarni hisoblash [20].

Ustun	Pillalar nomi	Indikator-lar soni	Ballar			Qayta hisoblangan ball (0–100)	Vazn
			Firma moslashuvch-anligi uchun ball	Ijtimoiy manfaat-lar uchun ball	Jami ball		
I	Biznesni boshlash normativlarining sifati	37	21	19	40	100	0,33
II	Biznesni boshlash uchun raqamli davlat xizmatlari va axborot shaffofligi	24	24	24	48	100	0,33
III	Biznesni boshlashning operatsion samaradorligi	4	100	N/A	100	100	0,33

Izoh: n/a = qo'llanilmaydi (firma yoki jamiyatga ta'siri noaniq yoki mavjud bo'lmagan holatlar).



Har bir ustun bo'yicha jami ball 0 dan 100 ball oralig'iga o'tkaziladi va so'ngra umumiy yo'nalish bo'yicha ballga qo'shiladi. Har bir ustun umumiy yo'nalish bo'yicha hisoblangan ballning uchdan bir qismiga teng ulushni tashkil qiladi. Birinchi ustun – 37 ta indikator orqali baholanadi va bunda firmaga 21 ball, jamiyatga esa 19 ball beriladi. Bu ballar yig'ilib, jami 40 ball hosil bo'ladi va 0–100 oraliqda masshtablanadi. Bu ustunning indeksdagi og'irligi 0,33 yoki 33 foizni tashkil etadi. Ikkinchi ustun – 24 ta indikator asosida baholanadi. Bu ustun bo'yicha ham firma va jamiyatga teng – 24 balldan, jami 48 ball to'planadi va bu natija ham 0 – 100 diapazoniga o'tkaziladi. Ustunning umumiy indeksdagi vazni ham 0,33 ni tashkil etadi. Uchinchi ustun 4 ta indikator asosida baholanadi. Firma uchun maksimal 100 ball ajratiladi, jamiyat uchun bu baholash tatbiq etilmaydi. Jami ball yana 0 –100 oraliqda ko'rsatiladi va ushbu ustunning ham og'irligi 0,33 ga teng bo'ladi.

Endilikda, ishbilarmonlik muhitini baholashda keng qo'llaniladigan navbatdagi usul, "Iqtisodiy erkinlik indeksi" metodologiyasini tahlil qilamiz. Mazkur indeks 1995-yilda "The Heritage Foundation" va "The Wall Street Journal" tomonidan joriy etilgan bo'lib, har bir mamlakatning iqtisodiy muhitini to'rtta asosiy yo'nalish – huquq ustuvorligi, davlat ishtiroki darajasi, tartibga solish samaradorligi va bozor ochiqqligi – bo'yicha kompleks tarzda baholaydi. Har bir yo'nalish uchta asosiy indikator orqali tahlil qilinadi va natijada jami 12 indikator to'rt asosiy blok doirasida birlashtirilgan. Metodologiya ko'plab miqdor va sifat ko'rsatkichlaridan tashkil topgan. Sifat ko'rsatkichlari odatda xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilinadigan reytinglar, ekspert so'rovnomalari yoki indeks ballari ishlatiladi. Bular odatda o'ziga xos ball shkalasida e'lon qilinadi. Har xil shkaladagi baholarni 0 dan 100 gacha bo'lgan yagona miqyosga moslashtirish uchun ular normallashtiriladi. Natija sifatida har bir indikator bo'yicha mamlakat 0 dan 100 gacha ball oladi (100 – eng yaxshi, 0 – eng yomon). Metodologiyaning umumiy ko'rinishi quyidagi jadvalda keltirilgan (3-jadval).

3-jadval. "Iqtisodiy erkinlik indeksi" metodologiyasini ko'rsatkichlari [21].

Bloklar	Indikatorlar	Sub-Indikatorlar
Huquq ustuvorligi (Rule of Law)	Mulk huquqi (Property Rights)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ekspopriatsiya (musodara qilish) xavfi;</li> <li>• Intellektual mulk huquqlariga rioya qilinishi;</li> <li>• Shartnomalar, mulk huquqlari va qonun ijrosini ta'minlash sifati.</li> </ul>
	Sud mustaqilligi (Judicial Effectiveness)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sud hokimiyatining mustaqilligi;</li> <li>• Sud jarayonlarining sifati;</li> <li>• Davlat xizmatlari sifati va davlat xizmatchlari-ning mustaqilligi.</li> </ul>
	Davlat idoralari pokligi (Government Integrity)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Korruptsiya haqidagi qarashlar;</li> <li>• Poraxo'rlik xavfi;</li> <li>• Korruptsiyani nazorat qilish, jumladan, davlat boshqaruvining elitalar va xususiy manfaatlar tomonidan "egallab olinishini" cheklash.</li> </ul>
Davlat ishtiroki darajasi (Government Size)	Soliq yuki (Tax Burden)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi;</li> <li>• Korporativ daromad solig'ining eng yuqori stavkasi;</li> <li>• Soliq yukining YAIM dagi ulushi.</li> </ul>
	Hukumat xarajatlari (Government Spending)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Hukumat xarajatlari komponenti davlat xarajatlarining yukini, jumladan davlat iste'moli va imtiyozli dasturlar bo'yicha transfert to'lovlarini aks ettiradi.</li> </ul>
	Fiskal barqarorlik (Fiscal Health)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• So'nggi uch yil uchun budget taqchilligining YAIMga nisbatan o'rtacha ulushi (bahoning 80 foizi);</li> <li>• Davlat qarzining YAIMga nisbatan ulushi (bahoning 20 foizi).</li> </ul>



<b>Tartibga solish samaradorligi (Regulatory Efficiency)</b>	Biznes erkinligi (Business Freedom)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Elektr energiyasiga ulanish imkoniyati;</li> <li>Biznes muhiti xavfi;</li> <li>Tartibga solish sifat darajasi;</li> <li>Ayollarning iqtisodiy faolligi va ishtirokini ta'minlash.</li> </ul>
	Mehnat bozori erkinligi (Labor Freedom)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Eng kam ish haqi;</li> <li>Birgalikda tashkil etish huquqlari (kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish huquqi);</li> <li>To'lanadigan yillik mehnat ta'tili;</li> <li>Ishdan bo'shatish uchun oldindan ogohlantirish muddati;</li> <li>Ishdan bo'shatish nafaqasi (kompensatsiya);</li> <li>Mehnat unumdorligi;</li> <li>Mehnat bozorida ishtirok etish darajasi</li> <li>Qo'shimcha ish vaqtiga cheklolar;</li> <li>Qonuniy ravishda ishdan bo'shatish mumkinligi.</li> </ul>
	Pul-kredit siyosati erkinligi (Monetary Freedom)	<ul style="list-style-type: none"> <li>So'nggi uch yil uchun inflyatsiyaning o'rtacha og'irliklangan darajasi;</li> <li>Hukumat tomonidan narxlarni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish yoki subsidiyalar orqali manipulyatsiya qilish darajasi bo'yicha sifat jihatdan baho.</li> </ul>
<b>Bozor ochiqqligi (Market Openness)</b>	Savdo erkinligi (Trade Freedom)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Savdo hajmiga tortilgan o'rtacha tarif stavkasi;</li> <li>Notarif to'siqlarning (NTB) sifat jihatdan baholanishi.</li> </ul>
	Investitsion erkinlik (Investment Freedom)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Investitsiyalarga qo'yiladigan turli xil tartibga soluvchi cheklolarni baholaydi:</li> <li>Xorijiy investitsiyalarga milliy munosabat;</li> <li>Xorijiy investitsiya kodeksi;</li> <li>Yerga egalik cheklolari;</li> <li>Tarmoqlarga investitsiya cheklolari;</li> <li>Adolatsiz musodara (ekspropriatsiya);</li> <li>Valyuta ayirboshlashga cheklolar;</li> <li>Kapital harakati cheklolari.</li> </ul>
	Moliyaviy erkinlik (Financial Freedom)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Moliyaviy xizmatlar sohasidagi davlat tartibga solish darajasi;</li> <li>Banklar va boshqa moliya institutlarida davlatning bevosita va bilvosita ishtirok etish darajasi;</li> <li>Kredit ajratishda davlat aralashuvi yoki ta'siri;</li> <li>Moliyaviy va kapital bozorlarining rivojlanganlik darajasi;</li> <li>Tashqi (xorijiy) raqobat uchun ochiqlik.</li> </ul>

Bu mezonlarga asosan, mamlakatlarning iqtisodiy erkinlik darajasi 0 dan 100 gacha ball bilan baholanadi [21]:

100 – Davlat aralashuvi yo'q. Davlat faqat shartnomaviy majburiyatlarni bajarilishini va firibgarlikning oldini olishni nazorat qiladi.

90 – Davlat aralashuvi minimal darajada. Moliyaviy institutlarni tartibga solish cheklangan, lekin ba'zan kapital yoki rezerv talablariga ham taalluqlidir.

80 – Nominal davlat ishtiroki. Davlatga tegishli moliyaviy institutlar sektor aktivlarining kichik qismini tashkil etadi. Moliyaviy xizmatlar deyarli cheklanmagan.

70 – Cheklangan davlat aralashuvi. Davlat kredit taqsimotiga ta'sir qiladi, biroq xususiy kreditlar amalda cheklanmaydi. Davlatga tegishli institutlar ulushi sezilarli, xorijiy moliyaviy institutlarga esa oz miqdorda cheklolar mavjud.

60 – O'rtacha davlat aralashuvi. Bank va moliyaviy sektorning tartibga solinishi biroz og'ir. Davlat sektordagi muhim aktivlarga ega va ba'zi moliyaviy xizmatlarga cheklolar mavjud.

50 – Ancha kuchli davlat aralashuvi. Davlat kredit resurslarini taqsimlashda sezilarli rol o'ynaydi. Xususiy kreditlar va moliyaviy xizmatlarda katta cheklolar mavjud.

40 – Kuchli davlat aralashuvi. Markaziy bank davlat ta'sirida, moliyaviy institutlar ustidan qat'iy nazorat mavjud, shartnomalarni himoya qilish va firibgarlikning oldini olish mexanizmlari zaif. Davlat katta ulushga ega.

30 – Keng qamrovli davlat aralashuvi. Kredit ajratilishi to'liq nazoratda, davlat ko'plab moliyaviy institutlarni egallaydi yoki boshqaradi. Banklarni tashkil etish va xorijiy institutlar uchun katta to'siqlar mavjud.

20 – Juda kuchli davlat aralashuvi. Markaziy bank mustaqil emas, moliyaviy institutlar ustidan repressiv nazorat, xorijiy moliyaviy institutlar deyarli cheklangan.

10 – Deyarli repressiv. Kredit ajratilishi to'liq davlat nazoratida, yangi bank ochish taqiqlangan, xorijiy moliyaviy institutlar taqiqlangan.

0 – To'liq repressiv. Xususiy moliyaviy institutlar umuman mavjud emas va barcha tartibga solish ularning faoliyatini butunlay to'sadi.



Shu bilan birga, Global raqobatbardoshlik indeksi (GRI) ham mamlakatning makroiqtisodiy muhitni tizimli va kompleks baholashda, eng ko'p foydalaniladigan metodologiyalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Jahon iqtisodiy forumi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu indeks har yili dunyo mamlakatlarning raqobatbardoshlik darajasini kompleks tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. GCI metodologiyasi iqtisodiy va institutsional rivojlanishning eng dolzarb jihatlarini, jumladan, infratuzilma sifati, makroiqtisodiy barqarorlik, sog'liqni saqlash va ta'lim sifati, texnologik taraqqiyot darajasi, mehnat bozori samaradorligi, moliyaviy tizim rivoji, bozor hajmi, biznes muhiti dinamikasi va innovatsion salohiyat kabi sohalarni qamrab olgan 12 ta asosiy blokdan tashkil topgan. Mazkur bloklar doirasida mamlakatlar yuzga yaqin (98 ta) ichki indikatorlar asosida baholanadi. Indeksda mamlakatning iqtisodiy erkinlik darajasi, institutsional muhitining barqarorligi, innovatsion faollik ko'rsatkichlari, sog'liq va ta'lim sohasining sifati hamda biznes yuritishdagi soddalik va raqobatbardoshlik darajasi chuqur tahlil qilinadi. Baholash jarayonida ham statistik, ham ekspert baholari va sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar orqali yig'iladi. Natijalar har bir mamlakat uchun 0 dan 100 gacha ballarda hisoblanadi, bunda yuqori natija mamlakatning raqobatbardoshligi yuqoriligini bildiradi. Biroq, tahlillarga ko'ra, tanqidlar tufayli metodologik o'zgarishlar kiritilgan. Xususan, yangi metodologiya avvalgi yillarga nisbatan diagnostik o'zgaruvchilar va ustunlar sonini qisqartirib, indeksning informativligi va ob'ektivligini oshirgan. Bundan tashqari, indikatorlarning vaznini optimallashtirish natijasida, ayrim subyektiv ko'rsatkichlarning ahamiyati pastligi aniqlanishi natijasida indikatorlar optimallashtirilgan [22]. Shuningdek, barcha bloklarning maksimal natijasi 8.3 foziga to'g'ri keladi. Natijada 12 ta blokning yig'ma indeksi 100 foizni tashkil etadi (1.7-jadval).

1.7-jadval. Global raqobatbardoshlik indeksi 4.0 metodologiyasi indikatorlari [23].

Blok	Ichki blok	Indikator	Sifat/ Miqdor	O'lchov birligi
1. Institutlar	Xavfsizlik	1.01 Uyushgan jinoyatchilikning biznesga ta'siri	Sifat	Ball
		1.02 Qotillik darajasi	Miqdor	100 ming aholiga
		1.03 Terroristik hodisalar	Sifat	Ball
		1.04 Politsiya xizmatlarining ishonchligi	Sifat	Ball
	Ijtimoiy kapital	1.05 Ijtimoiy kapital indeksi	Sifat	Ball
	Tekshiruv va muvozanat	1.06 Budget shaffofligi	Sifat	Ball
		1.07 Sud hokimiyatining mustaqilligi	Sifat	Ball
		1.08 Qonunlar muhokamasida jamoiyatning roli	Sifat	Ball
		1.09 Matbuot erkinligi	Sifat	Ball
	Davlat sektori faoliyati	1.10 Hukumat tartib-qoidalarining vazni	Sifat	Ball
		1.11 Nizolarni hal etishda huquqiy tizimning roli	Sifat	Ball
		1.12 Elektron ishtirokchilik	Sifat	Ball
		1.13 Hukumatning kelajakka yo'naltirilganligi	Sifat	Ball
	Shaffoflik	1.14 Korrupsiya holatlari	Sifat	Ball
	Mulkchilik huquqi	1.15 Mulk huquqi	Sifat	Ball
		1.16 Intellektual mulkni himoya qilish	Sifat	Ball
		1.17 Yer boshqaruvi sifati	Sifat	Ball
	Korporativ boshqaruv	1.18 Audit va buxgalteriya hisobi standartlarining mustahkamligi	Sifat	Ball
		1.19 Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish	Sifat	Ball
		1.20 Aksiyadorlarning korporativ boshqaruvi	Sifat	Ball



2. Infratuzilma	Transport infratuzilmasi	2.01 Yo'l tarmog'ining sifati	Sifat	Ball
		2.02 Yo'l infratuzilmasining sifati	Sifat	Ball
		2.03 Temir yo'l tarmog'ining zichligi	Sifat	Ball
		2.04 Poyezd xizmatlarining samaradorligi	Sifat	Ball
		2.05 Aeroportlar aloqadorligi	Sifat	Ball
		2.06 Havo transporti xizmatlarining samaradorligi	Sifat	Ball
		2.07 Chiziqli kemalar aloqadorligi	Sifat	Ball
		2.08 Dengiz porti xizmatlarining samaradorligi	Sifat	Ball
	Kommunal xizmatlar	2.09 Elektr energiyasidan foydalanish imkoniyati	Miqdor	%
		2.10 Elektr energiyasi sifati	Sifat	Ball
		2.11 Xavfli ichimlik suviga ta'sirlanish	Sifat	Ball
		2.12 Suv ta'minotining ishonchiligi	Sifat	Ball
3. AKTni qo'llash		3.01 Mobil-uyali telefon obunachilari	Miqdor	Abonent/100 aholi
		3.02 Mobil internet obunachilari	Miqdor	Abonent/100 aholi
		3.03 Statsionar internet obunachilari	Miqdor	Abonent/100 aholi
		3.04 Optik tolali internet obunachilari	Miqdor	Abonent/100 aholi
		3.05 Internet foydalanuvchilari	Miqdor	Abonent/100 aholi
4. Makroiqtisodiy barqarorlik		4.01 Inflyatsiya darajasi	Miqdor	%
		4.02 Davlat qarzi dinamikasi	Miqdor	Qarz/ YalM
5. Sog'liqni saqlash		5.01 Hayot davomiyligi	Miqdor	Yil
6. Ko'nikmalar (Skills)	A. Mavjud ishchi kuchi	6.01 O'rtacha ta'lim olish yillari	Miqdor	Yil
		6.02 Xodimlarni o'qitish darajasi	Sifat	Ball
		6.03 Kasb-hunar ta'limi sifati	Sifat	Ball
		6.04 Bitiruvchilarning malaka darajasi	Sifat	Ball
		6.05 Faol aholi orasida raqamli ko'nikmalar	Sifat	Ball
		6.06 Malakali xodimlarni topish imkoniyati	Miqdor	Yil
	B. Kelajakdagi ishchi kuchi	6.07 Kutilayotgan maktabda o'qish davomiyligi	Miqdor	Yil
		6.08 Ta'limda tanqidiy fikrlash	Miqdor	Yil
		6.09 Boshlang'ich ta'limda o'quvchi va o'qituvchi nisbati	Miqdor	O'quvchi/ o'qituvchi
7. Mahsulot bozori	A. Ichki bozor raqobati	7.01 Soliqlar va subsidiyalarning raqobatga ta'siri	Sifat	Ball
		7.02 Bozorda ustunlik darajasi	Sifat	Ball
		7.03 Xizmatlar sohasidagi raqobat	Sifat	Ball
	B. Savdo erkinligi	7.04 Notarif to'siqlarning keng tarqalganligi	Sifat	Ball
		7.05 Savdo bojlari	Miqdor	%
		7.06 Bojlarning murakkabligi	Sifat	Ball
		7.07 Chegaradan o'tish samaradorligi	Sifat	Ball
		7.08 Xizmatlar savdosining erkinligi	Miqdor	%



8. Mehnat bozori	A. Moslashuvchanlik	8.01 Ortiqcha xarajatlar	Miqdor	%
		8.02 Ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish	Sifat	Ball
		8.03 Xodim va ish beruvchi o'rtasidagi hamkorlik	Sifat	Ball
		8.04 Ish haqi belgilashning moslashuvchanligi	Sifat	Ball
		8.05 Faol mehnat bozori siyosati	Sifat	Ball
		8.06 Xodimlarning huquqlari	Sifat	Ball
		8.07 Chet ellik ishchi kuchini yollash qulayligi	Sifat	Ball
		8.08 Ichki mehnat bozori harakatchanligi	Sifat	Ball
	B. Xizmat va rag'bat tizimi	8.09 Kasbiy boshqaruvga tayanish	Sifat	Ball
		8.10 Maosh va samaradorlik	Sifat	Ball
		8.11 Ayollarning mehnat bozorida ishtiroki	Miqdor	Yil(Yosh)
		8.12 Mehnatga soliq stavkasi	Miqdor	%
9. Moliyaviy tizim	Qamrov	9.01 Xususiy sektorga ichki kredit	Miqdor	% YAIM
		9.02 Kichik va o'rta korxonalarni moliyalashtirish	Sifat	Ball
		9.03 Tavakkalchilik kapitalining mavjudligi	Sifat	Ball
		9.04 Bozor kapitallashuvi	Sifat	Ball
		9.05 Sug'urta mukofotlari	Sifat	Ball
	Barqarorlik	9.06 Banklarning moliyaviy barqarorligi	Miqdor	% YAIM
		9.07 Muammoli kreditlar	Miqdor	%
		9.08 Kredit tafovuti	Miqdor	% YAIM
		9.09 Banklarning me'yoriy kapital koeffitsienti	Miqdor	%
10. Bozor hajmi		10.01 YaIM	Miqdor	Mln/\$
		10.02 Tashqi bozor	Miqdor	%/YAIM
11. Biznes dinamikasi	Ma'muriy talablar	11.01 Biznesni boshlash xarajatlari	Miqdor	%/Daromad
		11.02 Biznesni boshlash uchun zarur vaqt	Miqdor	Kun
		11.03 Bankrotlikdan keyin tiklanish darajasi	Miqdor	%
		11.04 Bankrotlik bo'yicha me'yoriy-huquqiy baza	Sifat	Ball
	Tadbirkorlik madaniyati	11.05 Tadbirkorlik xatarlariga munosabat	Sifat	Ball
		11.06 Vakolatlarni topshirishga tayyorlik	Sifat	Ball
		11.07 Innovatsion kompaniyalarning rivojlanishi	Sifat	Ball
		11.08 Inqilobiy g'oyalarni qabul qiluvchi kompaniyalar	Sifat	Ball
12. Innovatsiya salohiyati	A. O'zaro aloqa va xilma-xillik	12.01 Ishchi kuchining turli-tumanligi	Sifat	Ball
		12.02 Klasterlarning rivojlanish darajasi	Sifat	Ball
		12.03 Xalqaro hamkorlikdagi ixtirolar	Sifat	Ball
		12.04 Ko'p tomonlama hamkorlik	Sifat	Ball
	B. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar	12.05 Ilmiy nashrlar	Miqdor	Dona
		12.06 Patent arizalari	Miqdor	1 mln aholiga
		12.07 ITTKIga sarflangan mablag'lar	Miqdor	%/YAIM
		12.08 Ilmiy-tadqiqot muassasalari nufuz indeksi	Sifat	Ball
	C. Tijoratlashtirish	12.09 Xaridorning talabchanligi	Miqdor	Dona
		12.10 Tovar belgisi uchun arizalar	Sifat	Ball



Jadvaldan ko'rish mumkinki, ushbu indeks o'zining ko'p qirrali tuzilishi orqali nafaqat an'anaviy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, balki institutsional, texnologik, ijtimoiy va innovatsion jihatlarni ham tizimli ravishda hisobga oladi.

Birinchiidan, indeks 12 ta asosiy blok va yuzdan ortiq ko'rsatkichlarni qamrab olgani sababli, iqtisodiyotning deyarli barcha muhim sohalarini qamrab oladi. Bu yondashuv, iqtisodiyotni rivojlantirishda faqatgina makro indikatorlarga emas, balki infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim sifati, biznes muhitining liberallasuvi, innovatsion salohiyat kabi zamonaviy omillarga ham alohida e'tibor qaratish imkonini beradi.

Ikkinchiidan, indeksda sifat va miqdoriy indikatorlar uyg'unlashgan. Ya'ni, statistik ma'lumotlar bilan bir qatorda, ekspertlar baholari va so'rov natijalari ham hisobga olinadi. Buning natijasida, iqtisodiy o'sish jarayonining faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatlari, jumladan, sud tizimining mustaqilligi, korrupsiya darajasi, innovatsion salohiyat, ta'lim va sog'liqni saqlash sifati, davlat boshqaruvi samaradorligi kabi ko'plab no'anaviy, biroq muhim ko'rsatkichlar ham baholanadi.

Uchinchiidan, indikatorlar va bloklarning barchasi yagona standartlashtirilgan ball tizimi asosida normallashtiriladi. Bunda turli mamlakatlar va yillar bo'yicha ma'lumotlarning taqqoslanishi mumkin bo'ladi va indeks o'zining obyektivligini saqlab qoladi.

To'rtinchiidan, GRI 4.0 metodologiyasi global taqqoslashga yo'naltirilganligi sababli, dunyoning turli davlatlari va mintaqalari o'rtasida bevosita solishtirishlar qilish va iqtisodiy siyosatni samarali rejalashtirish uchun ilmiy asoslar yaratadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda indeks tarkibida innovatsiya, raqamli infratuzilma, klasterlashuv, inson kapitali kabi zamonaviy indikatorlar sonining ko'paygani uning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ishbilarmonlik muhitini baholash bo'yicha o'rganilgan metodologiyalardan bizga ma'lum bo'ldiki, har bir ilg'or xalqaro indeks o'ziga xos yondashuv va baholash mezonlariga ega. Xususan, "Business Ready" metodologiyasi real biznes-jarayonlarni, davlatning tartibga solish faoliyati va raqamli xizmatlarning qulayligini, shuningdek, normativ-huquqiy asos va tartibotlarni eng amaliy jihatdan baholash imkonini beradi. Bu yondashuv tadbirkorlik faoliyatidagi real muammolar va imkoniyatlarni aniqlashda yuqori darajada aniqlik va aktual natija taqdim etadi. "Global Competitiveness Index" metodologiyasi esa mamlakat iqtisodiyotining tizimli va institutsional rivojlanishini, innovatsion salohiyatini, infratuzilma va mehnat bozori samaradorligini keng ko'lamda o'rganish imkonini beradi. Ushbu indeks orqali nafaqat iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlik, balki taraqqiyotning turli omillari chuqur tahlil qilinadi. "Economic Freedom Index" metodologiyasi esa iqtisodiy erkinlik, mulk huquqlari himoyasi, soliq yukining og'irligi va tartibga solish samaradorligi kabi eng asosiy omillarni baholashda yuqori samaradorlikka ega. Bu yondashuv, ayniqsa, davlat ishtirokining darajasini va bozorlarga kirish imkoniyatlarini tezkor va qisqa muddatda tahlil qilish imkonini beradi.

Fikrimizcha, ishbilarmonlik muhitini baholashda eng samarali metodologiya bo'lib, aynan "Business Ready" hisoblanadi. Chunki ushbu metodologiya nafaqat real biznes-jarayonlarni, davlat boshqaruvi samaradorligini va raqamli infratuzilmaning ahamiyatini, balki zamonaviy iqtisodiy muhit talablarini ham eng to'liq va aktual tarzda aks ettira oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. North, D.C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, p. 3-5. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511808678>
2. Cherunilam, F. (2021). Business environment. Himalaya Publishing House Pvt. Ltd.
3. Danish Junaid, Zheng He, Farman Afzal (2022). The impact of weak formal institutions on the different phases of the entrepreneurial process, Journal of Business Research, Volume 144, 2022, Pages 236-249, ISSN 0148-2963
4. Nguyen, B. (2022). Networking in Weak Institutions: When Is It Good for Small Business Investment? The Case of Vietnam. Management and Organization Review, 18(3), 583-620. doi:10.1017/mor.2020.85
5. Belas, J., Dvorský, J., Strnad, Z., Valaskova, K., & Cera, G. (2019). Improvement of the quality of business environment model: Case of the SME segment. Engineering economics, 30(5), 601-611.
6. Дроздова, Н. Е. (2018). Улучшение условий внешней среды малого бизнеса. Вопросы науки и образования, (3 (15)), 103-104.
7. Kindsfaterienė K., Lukaševičius K. (2008) The impact of the tax system on business environment //Engineering economics. – 2008. – Т. 57. – №. 2.
8. Gabriel, S. A., & Rosenthal, S. S. (2004). Quality of the business environment versus quality of life: do firms and households like the same cities? Review of Economics and Statistics, 86(1), 438-444.
9. Забазнова, Т.А. Сущность бизнес-среды и предпринимательской среды в сельских территориях // Вестник Волжской государственной академии водного транспорта. — 2009. — №1. — С. 87–91.
10. Арипов О. А. Ўзбекистонда ишбилармонлик муҳитини яхшилашдаги ташкилий-ҳуқуқий саъй-ҳаракатлар // Экономика и финансы (Ўзбекистан). – 2018. – №. 5. – С. 18-25.
11. Арипов О. А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни ривожлан-тириш ҳамда ишбилармонлик муҳитини яратиш. //“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – 2019. – Т. 2.



12. Aripov O. On measures for the formation and development of the business environment in the countries of the world // International Finance and Accounting. – 2020. – Т. 2020. – №. 1. – С. 25.
13. Фафуров У.В. Қулай ишбилармонлик муҳити–кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш-нинг муҳим шarti //Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami. – 2021. – С. 31.
14. Курпаяниди, К. И., & Ашуров, М. С. (2018). Муваффақиятли бизнес юритиш учун тадбиркорлик муҳитининг замонавий ҳолати ва уни самарали назорат қилиш муаммоларини баҳолаш (Ўзбекистон Республикаси материаллари асосида). Экономика и финансы (Ўзбекистан), (12), 17-24.
15. Курпаяниди, К. И., & Ашуров, М. С. (2019). «Doing business 2019: Training for Reform» тадбиркорлик муҳити самарадорлигини баҳолаш воситаси сифатида. Экономика и финансы (Ўзбекистан), (9), 2-9.
16. Ахмедов, Т., Абдуллаев, Б., & Якубов, Н. Ўзбекистонда тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишда яратилган бизнес муҳитини баҳолаш. IQTISODIYOT, 4.
17. Mustafakulov, Sh. (2020). Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибадорлигини оширишнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш. Архив научных исследований, 33(1).
18. Mustafakulov, Sh. (2024). Ўзбекистоннинг ресурс салоҳиятидан самарали фойдаланиш: инвестицион муҳит жозибадорлиги ва ишбилармонликни соғломлаштириш йўналишлари. Nordic\_Press, 2(0002).
19. Callais, J., & Lawson, R. Doing Business v. Business Ready: A Preliminary Comparison. [https://pcs.mymeetingsavvy.net/download/submissions/PCS\\_presentation\\_218430\\_1740072214.pdf](https://pcs.mymeetingsavvy.net/download/submissions/PCS_presentation_218430_1740072214.pdf)
20. Business Ready Methodology Handbook. First Edition. October 2024. pp 707. <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/357a611e3406288528cb1e05b3c7dfda0540012023/original/B-READY-Methodology-Handbook.pdf>
21. Heritage Foundation. (2025, February). Index of Economic Freedom: About the Index – Major works cited. Retrieved August 24, 2025, from The Heritage Foundation website: <https://www.heritage.org/index/pages/about>
22. Olczyk, M., Kuc-Czarnecka, M., & Saltelli, A. (2022). Changes in the Global Competitiveness Index 4.0 methodology: The improved approach of competitiveness benchmarking. Journal of Competitiveness, 14, 118-135.
23. World Economic Forum. (2018). The Global Competitiveness Index 4.0 methodology and technical notes [PDF]. Retrieved August 24, 2025, from World Economic Forum website: <https://www3.weforum.org/docs/GCR2018/04-Backmatter-3.%20Appendix%20C.pdf>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 8

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---